

Mavzu: JADIDCHILIKNING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI
JADIDCHILIK HARAKATINING TARIXIY SHARTLARI VA ASOSIY
SHAXSLARI.

Тема: ВОЗНИКНОВЕНИЕ И РАЗВИТИЕ ДЖАДИДИЗМА,
ИСТОРИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ И ОСНОВНЫЕ ДЕЯТЕЛИ ДВИЖЕНИЯ
ДЖАДИДИЗМА.

Topic: THE EMERGENCE AND DEVELOPMENT OF JADIDISM,
THE HISTORICAL CONDITIONS AND MAIN FIGURES OF THE
JADIDISM MOVEMENT.

**Farg‘ona davlat universiteti
harbiy ta‘lim fakulteti
mustaqil tadqiqotchisi
Хамракулов О‘tkirjon
Махмудович.**

**Ферганский государственный
университет
факультет военного обучения
независимый исследователь
Хамракулов Уткиржон
Махмудович.**

Annotatsiya: Zamonaviy dunyoda harbiy xizmatchilardan shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yangi o‘qitish usullarini ishlab chiqishni talab qiladigan dolzarb vazifa bo‘lib qoldi. Harbiy ta'lim tizimi o‘z oldiga yuqori shaxsiy sifatlarga, fazilatlarga, intizomga, shuningdek noaniq va qiyin sharoitda qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan professional kadrlarni tayyorlash vazifasini qo‘yadi.

Shu nuqtai nazardan, XX asr boshlarida mamlakatlarda ta‘lim tizimlarini yangilashda muhim rol o‘ynagan jadidchilik — islohot harakati alohida qiziqish uyg‘otmoqda. Jadidchilik ta‘limoti tamoyillarining integratsiyasi talabalarning tanqidiy fikrlash, mas‘uliyat va o‘zini safarbar etish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ularning ta‘lim darajasini oshirishi kutilmoqda.

Аннотация: В современном мире стала актуальной задача, требующая от военнослужащих разработки новых методов подготовки, направленных на всестороннее развитие личности. Система военного образования ставит перед

собой задачу подготовки профессиональных кадров, обладающих высокими личностными качествами, качествами, дисциплиной, а также способностью принимать решения в неопределенных и сложных условиях.

С этой точки зрения особый интерес представляет джадидистско-реформаторское движение, сыгравшее важную роль в обновлении систем образования в странах в начале XX века. Ожидается, что интеграция принципов джадидизма повысит уровень образования моих учеников за счет развития навыков критического мышления, ответственности и самомотивации.

(Abstract) In the modern world, a task has become urgent that requires military personnel to develop new training methods aimed at the comprehensive development of the individual. The military education system sets itself the task of training professional personnel with high personal qualities, qualities, discipline, as well as the ability to make decisions in uncertain and difficult conditions.

From this point of view, the Jadidist-reform movement, which played an important role in updating education systems in countries at the beginning of the 20th century, is of particular interest. Integrating the principles of Jadidism is expected to enhance my students' educational attainment by developing critical thinking skills, responsibility, and self-mobilization.

Kalit so‘zlar:

Jadidchilik, ma’naviy tushuncha, jasorat, ma’rifat, fidoyilik, ijtimoiy, siyosi, ma’rifiy harakat, uyg‘onish mafkurasi, matbuotni ijtimoiysiy, millatning o‘zligi, vatanparvarlik, milliyozodlik, konservatizm, konsepsiya, avangard jadidlar.

Ключевые слова:

Джадидизм, духовное понимание, мужество, просвещение, самоотверженность, социальное, политическое, просветительское движение, идеология пробуждения, пресса, общественно-политическая, национальная идентичность, патриотизм, национализм, консерватизм, концепция, авангардные джадиды.

Key words:

Djadidism, spiritual understanding, mujestvo, enlightenment, samootverjennost, sotsialnoe, politicheskoe, prosvetitelskoe dvijenie, ideology probujdeniya, pressa, obshchestvenno-politicheskaya, natsionalnaya identichnost, patriotism, nationalism, conservatism, concept, avant-garde djadidy.

Kirish (Introduction)

Zamonaviy dunyoda harbiy xizmatchilardan shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yangi o'qitish usullarini ishlab chiqishni talab qiladigan dolzarb vazifa bo'lib qoldi. Harbiy ta'lim tizimi o'z oldiga yuqori shaxsiy sifatlarga, fazilatlarga, intizomga, shuningdek noaniq va qiyin sharoitda qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lgan professional kadrlarni tayyorlash vazifasini qo'yadi.

Shu nuqtai nazardan, XX asr boshlarida mamlakatlarda ta'lim tizimlarini yangilashda muhim rol o'ynagan jadidchilik — islohot harakati alohida qiziqish uyg'otmoqda. Jadidchilik ta'limoti tamoyillarining integratsiyasi talabalarning tanqidiy fikrlash, mas'uliyat va o'zini safarbar etish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ularning ta'lim darajasini oshirishi kutilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Jadidlar g'oyasi – Yangi O'zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohang.”^[1]

“Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi payt da bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilmfan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”, - dedi prezident.

[1] Президент Шавкат Мирзиёев раислигида 2023-йил 22-декабрь Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган йиғилиши. ўтказилган



Davlat rahbari Toshkentda ўтказилган **“Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari”** mavzusidagi konferensiya jahon ilmfan va madaniy jamoatchiligi o‘rtasida katta qiziqish va e‘tibor uyg‘otdi. Bu ishlarni yanada kengaytirish va yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida prezident qarori qabul qilinadi dedi prezident

Ja didchilik yoki jadidizm (arabcha: جديد jadīd — yangi деган маънони англатади) – XIX asr oxirlari XX asr boshlarida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat[1]. Jadidchilik harakati dastlab, XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan boshlab O‘rta Osiyoda tarqaldi.

Jadidchilik avval madaniyat va ma’rifat sohalaridagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu harakat vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o‘rganish, fan va texnika yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan.

Sobiq Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka „burjua-liberal, millatchilik harakati“ deb ta’rif berilgan.

Jadidchilik dastlab XIX-asrning 80-90yillarida Qrimlik Ismoil Gaspirali rahbarligi ostida qrim tatarlar xalqi o‘rtasida vujudga kelgan.

Ismoil Gaspirali - qrim-tatar millatiga oid ziyolilar vakili, pedagog, yozuvchi, yirik siyosiy va jamoat arbobi . U jadidchilik va panturkizmning^[1] asoschi deb ham hisoblanadi^[2].

Ismoil Gaspirali nomi islom Sharq xalqlarining ma’rifatparvarlik harakati — jadidchilikning (**ta’limning (ta’limotning) yangi, dunyoviyroq usuli**) asos solishi va rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, u ko‘plab musulmon mamlakatlarida boshlang‘ich ta’lim berishda ko‘proq dunyoviy qarashlarga utg‘u beradi. **Odatiy ta’limning mohiyatini va tuzilishini tubdan o‘zgartirishga mansub.** Ismoil Gaspirali ma’rifatparvar ta’limning kelib chiqishi va maktabda jadidchilik deb nomlangan dunyoviy bilimlarni o‘qitish usulining rivojlanishida turdi. U o‘zining darslik, qo‘llanma va asarlarida musulmon mamlakatlaridagi boshlang‘ich maktabning allaqachon tanish bo‘lgan qonunlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatdi.

Aynan Ismoil Gasprinskiy milliy-konfessional tizimni o'zgartirish asoslarini ishlab chib ta'lim tizimiga joriy qildi. Ismoil Gasprinskiy o'z tamoyillarini jamiyat taraqqiyotidagi taraqqiyot va konfessional bag'rikenglikka asoslagan.

Gaspirali Ismoil yangi o'qitish usullarini nafaqat Qrimda, balki Tatariston, Qozog'iston, Boshqirdiston, Turkmaniston, Tojikiston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkiya, Shimoliy Fors va Sharqiy Xitoyda ham amalga qo'lladi. Milliy rusumdagi yangi usul maktablari uchun darsliklar, qo'llanmalar yozgan va nashr ettirgan.

Ismoil Gaspirali o'sha davrdagi Rossiya matbaa ishchilari kasaba uyushmasining rivojlaniishida mahkam turdi. Ismoil Gaspirali ko'plab „Kambag'al musulmonlarga yordam berish jamiyatlari“, „Kutubxona jamiyatlari“ni tashkil etish taklif va g'oyalarini tarqatgan va ularning ko'pchiligida shaxsan o'zi ishtirok etgan. Ismoil Gaspiralining mafkuraviy tamoyillari va g'oyalari liberal mafkura, jamiyatning ilg'or rivojlanishi, turkiy va slavyan xalqlarning do'stligi, musulmon va xristianlarning diniy bag'rikengligi, sotsialistlarning radikal talablarini rad etish asosida yaratilgan edi. Ismoil Gaspirali jamiyat taraqqiyotining evolyutsion shakllarini yoqladi.

Ismoil Gaspiralining qarashlari ijtimoiy kelib chiqish ahamiyati jihatidan atoqli pedagog va faylasuflar kabilarning g'oyalari qatorida turadi.

Jadidchilik harakati harakatchilari o'zlarini vatanparvar, taraqqiyparvarlar, keyinchalik esa jadidlar deb atashgan. O'sha vaqtning ilg'or vatanparvar, taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, xalqni isloh qilishmajburligini tushunib yetgandilar.

Jadidchilik avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish, ifodalanish va mag'lubiyatga uchrash oraliqlari bo'lib, ular to'rt davirga bo'lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar:

1. 1895–1905;
2. 1906–1916;
3. 1917–1920;

4. 1921–1929-yillarni o‘z ichiga oladi.

Ilk davrda yani birinchi Turkistonda Rossiyasining podshosi mustahkam o‘rnashib olishi kuzatiladi. O‘sha vaqtda mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo‘yildi, diniy e‘tiqodlari, urf-odatlar bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik xolatlari tobora kuchaydi. Hayotiy, ilmiy va amaliyotga ega bo‘lgan saviyasi yuqori bo‘lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxo‘rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj ola boshladi.

Madrasa va maktablar faoliyatlarini cheklash, mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almashtirish, hatto mahkama jarayonida qozilar bo‘yniga xoch taqtirishgacha borildi.

Millatning nurli istiqbolini o‘ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari - hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga (chorrossiya tizimi) qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg‘otish - siyosiy-ma‘rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o‘ziga qulay zamin yarata oldi.

Ular orasidan yetuk olimlar, zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o‘z yurtini mustaqil ko‘rishni orzu qildilar va shu yo‘lda kurashdilar kereak bo‘lsa jononi ham qurbon qildilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan yo‘nalishlari ustuvor edi:

1. yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish;
2. qobiliyatli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish;
3. turli ma‘rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish;

1. gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish va barpo etish.

Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi.

Bunday olganda, XX-asr boshida yuzaga kelgan jadidchilik xarakati o‘sha xalqlarining milliylikka erishish, mustaqillik yo‘lida dastlab chor Rossiyasi, so‘ngra

sovet mustamlakachiligiga qarshi kurashda muxim o‘rin tutadi. Bular qatoriga quyidagi jadidlarni ko‘rsata olamiz:

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fayzulla Xo‘jayev, Said Ahmad Vasliy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Hamza Hakimzoda Niyoziy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Abdurauf Fitrat, Abdulla Badriy va boshqalar o‘zlarning hayot va yashash davrida jadidchilik xarakatida juda yorqin iz qoldirdilar.

Hususan: **Mahmudxo‘ja Behbudiy ibn Behbudxo‘ja**) dramaturg, noshir, din va jamoat arbobi, jadidchilik harakati yetakchilaridan biri. Samarqandning Baxshitepa qishlog‘ida diniy olim oilasida tavvalud topgan.


Uning kelib chiqishi Yassaviy avlodidan. Balog‘at yoshidan qozixonada ishchi qiladi, qozi, mufti darajasiga ko‘tariladi. Behbudiy haj safarida bo‘lgan chog‘ida Arabiston, Misr, Turkiyani kezib chiqqan (1899–1900). Sayohatlar davomida yangi maktab ochish fikrini mustahkamlab bordi. Samarqandagi Halvoyi qishlog‘ida Abduqodir Shakuriylar bilan hamkorlikda yangi maktab ochadi. Behbudiy Qozon va Ufaga borib, u yerdagi yangi usul maktablari bilan tanishadi, tatar ziyolilari bilan aloqani yo‘lga qo‘yadi. Yangi maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. 25-Mart 1919 44-yoshida Qarshi shahrida vafot etgan.



Munavvarqori, Abdurashidxonov Munavvar qori (1878, Toshkent — 1931.23.4, Moskva) — O‘rta Osiyo jadidchilik harakatining yo‘lboshchisi, XX asr o‘zbek milliy matbuoti va yangi usuldagi milliy maktab asoschisi, yangi milliy teatr tashkilotchilaridan biri, adib va shoir. Abdurashidxonov Munavvar qori 23-aprel 1931-yil (52 yoshda) Moskva shahrida vafot etgan.




Abdulla Qodiriy (asosiy taxalluslari: Qodiriy, Julqunboy) (1894.4.10-Toshkent-1938.10.4) – XX-asr yangi o‘zbek _____ adabiyotining ulkan namoyandasi, o‘zbek romanchiligining asoschisi; 20-yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi. Bog‘bon oilasida tug‘ilgan. Otasi Qodirbobo (1820—1924) xon, beklar qo‘lida sarbozlik qilgan, rus bosqini paytida (1865) Toshkent mudofaasida qatnashgan. Otasi boshidan o‘tgan sarguzashtlar Abdulla Qodiriyning qator asarlari, xususan tarixiy romanlarining yuzaga kelishida muhim rol o‘ynagan. Abdulla Qodiriy musulmon maktabida (1904–1906), rus-tuzem maktabida (1908–12), Abulqosim shayx madrasasida (1916–17) ta’lim oldi; Moskvadagi adabiyot kursida (1925-26) o‘qidi. Yoshligidanoq qadimgi Sharq madaniyati va adabiyoti ruhida tarbiya topgan; arab, fors va rus tillarini o‘rgangan. Jahon adabiyotini ixlos bilan mutolaa qilgan.



Abdurauf Fitrat (1886, Buxoro shahri, Buxoro _____ amirligi — 4-oktyabr, 1938, Toshkent shahri, O‘zbekiston _____ SSR) — o‘zbek tarixchisi, filolog,

tarjimon, yozuvchi, dramaturg va shoir, zamonaviy o‘zbek tili va adabiyoti asoschilaridan biri, O‘rta Osiyo jadidchiligining taniqli vakili, birinchi o‘zbek professori (1926)^[1]. Jadidchilik milliy ma’rifatparvarlik harakatining tarafdori. Turkiyada ta’lim olgan. Inqilobga qadar O‘rta Osiyoni Rossiyadan ozod qilinishi harakatlarida faol qatnashgan, politsiya nazorati ostida bo‘lgan. Turkiyadagi „Yosh turklar“ harakatidan ilhomlanib, Buxoroda „Yosh buxoroliklar“ partiyasini tuzgan, uning ma’naviy rahnamosiga aylangan. Do‘sti va maslakdoshi Munzim bilan hamkorlikda buxorolik 70 nafar yosh turkistonliklarni Germaniyaning bir qator oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga yuborgan (1922)^[2].



Cho‘lpon (asl ism-sharifi **Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Yunusov**; 1897-yil, Andijon –1938.4.10, Toshkent) – shoir, yozuvchi, dramaturg, tarjimon, tanqidchi va jamoat arbobi. Dastlab, madrasada (1908-1912), so‘ngra rus-tuzem maktabida (1912-1914) o‘qigan. Sharq mumtoz shoirlari asarlarini mutolaa qilish va jadid matbuotini kuzatish yo‘li bilan adabiy, ijtimoiy-siyosiy bilimini oshirgan.

1938-yilda 4-oktabrda Bozsuv bo‘yida qatl qilinadi.



Jadidchilikning asosiy g'oyalari quyidagilardan tashkil topgan:

- umummilliy ma'rifatni mavqeyini ko'tarish
- milliy ongni yuqoriga rivojlantirish
- xalqni milliy birlikka erishish
- xalqni milliy mustaqillikka erishish
- mamalakatda lahon madaniyatini egallash.

Jadidchilikning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

-Turkiston xalqlarini o'rta asrlarga xos qoloqliklardan va diniy xurofotlardan ozod etish shariatni bosqichma-bosqich isloh qilish

-xalqqa ma'rifat ulashish va tarqatish

-Turkistonda maxalliy hukumatni yangi muxtoriyat hukumatiga o'tkazish uchun kurash

-O'sha davrning Buxoro va Xiva xonliklarida qo'nuni bo'lmish konstitutsiyaviy monarxiya va parlament keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish

-o'sha zamonga xos barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish.

- Toshkentda, Farg'onada, Buxoroda, Samarqandda va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar insonlarning ayrim guruhleri tomonidan ochilgan madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllantirish.

XIX-asrning oxiri XX-asrning boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jixatdan inqiroz xolatiga tushib qolgan musulmlarka tufayli rivojlanish past darajada bo'lgan

o'lkada Turkiston ziyolilari chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o'z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiyotni va madaniyatni taraqqiyot etish, yurt xalqig bilim va ziyo tarqatish choralarini ko'rish. Bu yo'nalishda jadidchilik xarakati tsa eng katta rol o'ynadi.

Jadidchilik g'oyalari esa XIX asrning 90-yillaridan targala boshladi. Bu xarakat XX asrning 30-yillarining oxirlarigacha yurt ijtimoiy-siyosiy xayotida muxim rol o'ynadi. Jadidchilik xarakatida quyidagi 3-bosqichda iborat bo'lgan:

- 1) XIX asr oxirlaridan 1915-yilgacha - ma'rifatchilik;
- 2) 1915-yildan 1918 yil fevraligacha - muxtoriyatchilik;
- 3) 1918-yil fevral oyidan 1920-yillar oxirlarigacha mustabid sovetlar davridagi faoliyati.

Jadidchilik harakati Rossiyaga qaram va ularga mole bo'lgan musulmon xalqlari orasida dastlab Qrimda XIX asrning 1880-yillarida paydo bo'ldi. Jadidchilik harakati asoschisi diniy-dunyoviy ilmlarni chuqur egallagan Ismoilbek Gasprali (1851-1914) bo'lgan. Ismoilbek Gasprali 1884-yilda jadidchilar maktabini tashkil etib, 40-kun mobaynida 12-nafar o'quvchinng savodini chiqaradi. Uning o'qitishmetod va usuli «usuli savtiya», ya'ni «yangi usul» nomi bilan shuxrat qozondi. Ismoilbek Gasprali o'z g'oyalarini qabul qilgan yangilik tarafdorlari «jadidlar», uning g'oyalari esa «jadidchilik» nomini oldi. Ismoilbek Gasprali tsa bu sohada yangilik yaniy darslik yaratadi.

Jadidlarning davrining xalq ma'rifati uchun kurash dasturi 3-asosiy yo'nalishdan iborat bo'lgan:

1. Yangi usuldagi maktablari tarmog'ini kengaytirish.
2. Umidli, iqtidorli yoshlarni chet ellarga o'qishga yuborish.
3. Turli ma'rifiy-ma'naviy jamiyatlar tuzish xamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan uchunchi xokimiyat yani gazetalarni chop etish.

Ushbu reja-dasturni amalga oshirish borasida Maxmudxo'ja Bexbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Abdulla Avloniy, Abdulxamid Cho'lpon va boshqa ziyolilar jonbozlik ko'rsatishdi. Yangicha o'qitish tizimi musulmon farzandlariga qisqa vaqt ichida dunyoviy, diniy

ta'lim berish reja-dasturi asosida olib borildi. Bu dasturga ko'ra maktablarda o'qitish tizimi 2-bosqichdan tashkil topgan. 1-bosqich ibtidoiy qism deb atalib, uning bilim olish yani o'qish muddati 4-yilni ichiga olgan. 1-bosqichni tamomlagan shogird eski maktabda 10-yil ta'lim olgandan ko'ra yaxshiroq bilimga ega bo'lgan.

2-bosqichni tugatgan o'quvchi arab, fors, turkiy tilda bimalol so'zlashib, rus tilida erkin gaplasha olganl.

Jadidlarning millatlararo aloqalari juda keng qamrovli bo'lgan sababli ular Rossiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlardagi jadidchilik oqimlari dasturlaridan xabardor bo'lganlar, o'zaro safarlar, muloqotlar orqali tajriba almashganlar.

Andijondagi jadidlarning yashirin tashkiloti «Taraqqiyparvar» deb atalib, maxfiy ishlar bo'yicha politsiya bo'limining ma'lumotlariga qaraganda, uning rahbarlaridan biri Ubaydulla Xo'jayev bo'lgan.

I-Jaxon urushidan keyin jadidlar parlamentar monarxiya uchun kurashgan bo'lsalar, Rossiyadagi fevral inqilobidan keyin Turkiston jadidlarining «taraqqiyparvarlar» oqimini tashkil qilgan radikal qismi ancha keng qamrovli, bir qator siyosiy talablarni ilgari surdi.

Turkistondagi oktyabr voqealari ularga o'z maqsadlarini oxirigacha amalga oshirishlariga imkon bermadi. Juda kam faoliyat ko'rsatgan bu muxtor respublika tugatilishi oqibatida jadidlar ta'qibga uchradilar. Abdurashidxonov Munavvarqorining guvohlik berishicha, «Ittixodi taraqqiy», «Milliy ittixod», «Milliy istiqlob» va «Turkiston Milliy Birligi» (raisi Axmad Zakiy Validiy) maxfiy tashkilotlari o'lkada xokimiyatni qo'lga olish maqsadida faoliyat yuritgan.

Jadidlarning ayrimlari o'sh davr tuzumning siyosatiga ko'nikaolmay xorijga o'tib ketishdilar, qolgan qismi esa Turkistonda mavjud bo'lgan istiqlobchilar xarakatiga qo'shilib ketdilar.

Buxoro amirligi va Xiva xonligida jadidchilik xarakati Turkistondagi kabi XIX asr oxiri-XX asr boshlarida shakllangan bo'lsa ham bu xududlardagi tarixiy sharoit undagi jadidchilik xarakatiga ham o'ziga xos xususiyatlar baxsh etdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

O'zbek sovet entsiklorediyasi. 2-jild. T., 1979.

Qosimov S. Behbudiy va jadidchilik. [„O‘zbekiston adabiyoti va san’ati“](#), 1990-yil 19,26-yanvar.

Qosimov Behbudiy Karvonboshi. [„Yoshlik“](#) jurnali, 1990-yil, 1-son.

Aliev A. Mahmudxo‘ja Behbudiy. T., 1994.

Ahmedov S. O‘limdan qo‘rqmagan mutafakkir. „Sovet O‘zbekistoni san’ati“, 1989-yil, 2-son.

Rizaev Sh. „Padarkush“ yohud [Samarqand](#) tarixidan lavhalar". [„Vatan“](#) gazetasi, 1994-yil, 39-son.

N. To‘xliyev va boshqalar. *Toshkent ensiklopediyasi*. [Toshkent](#): „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ davlat ilmiy nashriyoti, 2009 — 784-bet.

Oltinbek Olim. *Jadid adabiyoti namoyondalari: Abdulla Avloniy*. „Zabarjad media“, 2022 — 432-bet.

Politicheskaya jizn russkix musulman do fevral’skoy revolyutsii, Oksford, 1987;

Fayzulla Xo‘jayev hayoti va faoliyati haqida yangi mulohazalar, T., 1997;

Fayzulla Xodjayev. 100 bet, Navoi, 1996;

O‘zbekistonning yangi tarixi, 2kitob [O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida], T., 2000;

Eshonov O. E., Fayzulla Xo‘jayev, T., 1973;

Hasanov M., Fayzulla Xo‘jayev, T., 1990;

Baqoyev M., Fayzulla Xo‘jayevjurnalist va publitsist, T., 1992;

Rajabov K, Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi kurash, T., 2002.